INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

CHDPU Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti
(ingliz tili) **Qahhorova Ra'no Abdujabbor qizi**

Ilmiy rahbar: CHDPU pedagogika fakulteti
"Umumiy pedagogika"kafedrasi v.b dotsenti
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD),
Karshiyeva Dilbar Eshpulatovna.
https://orcid.org/0009-0009-7105-2792
Email: d.karshiyeva1986@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimiz ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta'limni yuksaltirish masalalari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan haqiqiy inklyuziv sharoitlarni yaratish hamda ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha vazifalar mohiyati haqida so'z boradi.
Kalit so'zlar: Ta'lim, ta'lim shakllari, inklyuziv ta'lim, pedagogik tahlil, metod, ijtimoiy siyosat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы в системе образования нашей страны и их значение, вопросы совершенствования инклюзивного образования, сущность задач создания подлинно инклюзивных условий для детей с особыми образовательными потребностями и повышения качества образовательных услуг.
Ключевые слова: Образование, формы образования, инклюзивное образование, педагогический анализ, метод, социальная политика.

Abstract: This article discusses the reforms in the education system of our country and their significance, the issues of improving inclusive education, the essence of the tasks of creating truly inclusive conditions for children with special educational needs and improving the quality of educational services.
Keywords: Education, forms of education, inclusive education, pedagogical analysis, method, social policy.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha uchun ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Milliy qonunchiligimizda ham nogironligi bo'lgan shaxslar uchun salohiyatlarini yuzaga chiqarishda teng huquqlar belgilangan. Bugungi kunda nogironligi va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarni yaratish bo'yicha mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga

ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 - 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. [1]

Bu konsepsiyada alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

• alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

• alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

• alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash;

• alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash va boshqalar.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan sifatli (qualitative), fanlararo va konseptual-analitik yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi inklyuziv ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda psixologik xavfsizlikni ta’minlashga oid nazariy asoslarni tizimlashtirish, mavjud ilmiy yondashuvlarni solishtirish va ularning psixologik oqibatlarini chuqur tahlil qilishdan iborat bo‘lganligi sababli, empirik eksperimentdan ko‘ra nazariy-analitik metodlar ustuvor deb belgilandi.

Mazkur tadqiqot bo’yicha Qaxxorova D.S. Axmedova D.Z, Nigmatov Z.G va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o’tish maqsadga muvofiqdir. [1;61] Inklyuziv ta'limning muhim muammolaridan biri bo’lgan alohida ta’lim ehtiyojga ega bo’lgan bolalar guruhini aniqlab, ularga sifatli ta’lim shakllarida bilim berish va salohiyatini oshirishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ustuvor yo’nalishlarga ega bo’lgan tamoyillari va yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta’lim bu o‘zi nima? INKLYUZIV - (inklyuziya - inglizcha [inclusion] - uyg‘unlashish) Hamkorlikdagi ta’lim bo‘lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng samarali, eng insonparvar ta’lim sifatida tan olingan. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga sog‘lom tengdoshlari bilan birga ta’lim olishidir. Inklyuziv ta’lim pedagog xodimlar va ota-onalar tomonida ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuvni o‘zida aks ettiradigan tabiiy jarayon hisoblanadi.

Bu maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan maktabning ta'lim faoliyatiga, yo'nalishlariga, hamda imkoniyatlarga (jismoniy, intellektual) mos kelishi maqsadga muvofiqdir. Umumiy ta'lim dasturining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun nogiron o'quvchilarga maxsus sharoitlar yaratib berilishi kerak. Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarni ishlashga tayyorlashning bilim to’siqlaridan biri bu hatti-harakatlarida passiv rivojlanish va tuzatishga qaratilgan ishlarini amalga oshirishga qaratilgan asoslar to'g'risidagi bilimlardir.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida qarori PQ-4312 08.05.2019

Ushbu bilimlar orqali alohida ehtiyojga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilishda pedagogik faoliyatning dolzarb vakolatlarini shakllantirishdir. Avvalo, biz mashg'ulotga yondashuvlarni individualizatsiya qilish, xususan, mashg'ulotni tashkil etish uchun shart - sharoitlarni tanlash, vazifalarni bajarish shaklini individuallashtirish va natijalarni taqdim etishning maqbul usullarini tanlash, natijalarni sifatli baholashga yondashish talab qilinadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim muhitida ta’lim jarayoniga qanday metodologik va etik asoslarda integratsiya qilish bilan bevosita bog‘liqdir.

Inklyuziv ta'limda ishlash uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi.

- o'qitishning moslashuvchan shakllariga, interfaol o'qitish uslublariga ega bo'lish;
- bilish faoliyati mustaqilligini rag'batlantirish qobiliyati;
- jamoada ishlash qobiliyati, alohida ehtiyojli bolalar ta’limi uchun psixologik - pedagogik yordamni yaratish uchun mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lish smaradorligi bilan tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish.

Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Ma’lumki, inklyuziv ta’limda maxsus ta’lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma’lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta’lim aqliy, jismoniy tashqi ko‘rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta’lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko‘ra belgilanadi. Maxsus ta’lim o‘qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o‘qitilsa, inklyuziv ta’lim bolaga yo‘naltirilgan va moslashtirilgan, yo‘riqnomali, barchaga mo‘ljallangan o‘quv dasturi asosida o‘qitiladi. Inklyuziv ta’limning o‘ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o‘qituvchi bir - birlaridan o‘rganishadi hamda muammolarni birgalikda xal etishadi.

Xulosa

Iinklyuziv ta'limda pedagogik jarayonning mazmun komponenti alohida ehtiyojli bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarkibning o'zgaruvchanligini ta'minlashdan iboratdir. Imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog’lom bolalar qatoriga qo‘shib sifatli ta’lim olishini ta’minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo’lmish farzandlarni ma’suliyatini his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab yashnashiga salmoqli ulush qo’shadigan munosib fuqarolar bo’lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi. Ko’plab mamalakatlarda bo’lgani kabi O’zbekistonda ham imkoniyati chaklangan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar mavjud ularning vazifasi esa ularni maxsus o’quv yurtlariga tayyorlash hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga shart-sharoit yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida qarori PQ-4312 08.05.2019

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari

to‘g’risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil. 162b.